

## TA'LIMDA XUSUSIY MAKTABLARNING O'RNI

**Ibrгимov Sohixon Temirovich**

“New first school”

nodavlat ta'lim muassasasi direktori

### ANOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kun ta'lim jarayoni va bu jarayonda aynan xususiy maktablarning tutgan o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi. Xususiy maktablarda olib borilayotgan ta'lim jarayoni va uning sifati, yutuq va kamchiliklari keltirilib, bir qancha misollar orqali keltirib o'tiladi. Bugungi kundagi faoliyat olib borayotgan bir qancha xususiy maktblar faoliyati kuzatilib, tahlil qilingan. Shaxsiy fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'z:** siyosat, mamlakat, maktab, tarbiya, ma'rifat, bilm, aql, zakovat, strategiya, rivojlanish, faollik, xususiy maktab, o'quvchi, rivojlanish.

### ABSTRACT

This article talks about today's educational process and the role and importance of private schools in this process. The process of education conducted in private schools and its quality, achievements and shortcomings are given and given through several examples. The activities of several private schools operating today have been observed and analyzed. Personal opinions are given.

**Keywords:** politics, country, school, education, enlightenment, knowledge, intelligence, intelligence, strategy, development, activism, private school, student, development.

Jamiyatda ta'lim mavzusi har doim dolzarb bo'lib kelgan, ayniqsa, ta'lim sohasida uni yanada sifatli va innovatsion bo'lishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi paytda. «Maktab» ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan obekt, bu yerda bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayoni amalga oshirilmoqda. Shu sababli, xalq ta'limi mavzusi ota-onalarda doimo qiziqish uyg'otadi. So'nggi vaqtlarda ota-onalar o'z farzandlarini xususiy maktabga berishga intilayotgani ko'p eshitilmoqda, ular bunga sifatliroq ta'lim va qulay sharoitlar bilan izoh berishmoqda.

Ta'kidlash joizki, xususiy maktablar xuddi davlat maktablari kabi davlat ta'lim standartlari (davlat talablari), o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq davlat ta'lim normalari shaklida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, samaradorlikni oshirish uchun

xalqaro eng yaxshi amaliyotlardan foydalanish mumkin. Bu yerda ota-onalar uchun ham, talabalar uchun ham ikkita qulaylik darajasini ajratish mumkin. Deyarli 24 soat davomida ishlaydigan ota-onalar uchun xususiy maktab «najot» bo'ladi. Muassasalarning ishlash tartibi o'rtacha 08.00dan 18.00gacha. Bola kun bo'yi pedagoglar nazoratida bo'ladi, bilim oladi, to'garaklarga qatnaydi, uy vazifalarini bajaradi, kuniga o'rtacha uch mahal ovqatlanadi. Boshqa tomondan, bunday rejim bolaga katta psixologik yuk bo'lib tushadi. U hamma narsani qilishga va rejim doirasida ulgurishga majbur. O'quvchi «shaxsiy vaqt» va «shaxsiy makon»da juda cheklangan bo'ladi. Bu masalada xususiy maktablarning ustunligi bor. Xususiy sektorda moddiy bazaning imkoniyatlari ancha kengroq, shuning uchun yaxshi jihozlangan xonalar, zamonaviy texnologiyalar va texnikadan foydalanish ilg'or, sifatli ta'lim bilan birga kechadi.

Bolaning ta'lim olishi va o'zlashtirishi maktab shakliga uncha bog'liq bo'lmagan omil. Biroq, ba'zi ota-onalarning fikricha, xususiy maktabda baholar faqat ijobiy bo'lishi kerak. Shuni tushunish kerakki, ta'limdagi muvaffaqiyat maktab nomi va ota-onaning puliga emas, balki o'quvchi hamda pedagogning o'ziga bog'liq. Agar bola davlat maktabidan xususiy maktabga o'tkazilsa, bu uning natijalari yaxshilanishiga kafolat bermaydi. Ushbu holatda shu narsa plyus bo'ladiki, xususiy maktab sinflarida o'rtacha 15-20 nafar bola ta'lim oladi. Bu o'qituvchiga sinfdagi har bir bolaga e'tibor berish imkonini yaratadi. Uning xususiyatlari va qobiliyatlarini payqashda ham.

Xavfsizlik bu maktablardagi eng ijobiy jihat. Xususiy maktab - qo'riqlash ostida bo'lgan yopiq hudud. Aksariyat xususiy maktablar videokuzatuv tizimlaridan foydalanadi. Xususiy maktablar son jihatidan davlatniki bilan taqqoslaganda uncha katta bo'lmagani sababli, bu qo'riqlash xizmatiga har bir bola va uning ota-onasini shaxsan tanish imkonini beradi. Hududga begonalar kira olmaydi. Bu albatta maktabning yana bitta ijobiy taraflaridan biridir.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan xususiy maktablar o'zining noodatiy va zamonaviy bilm berish usullari bilan o'quvchilarning sifatli ta'lim olishida juda kata ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim sifati. Ta'kidlash joizki, NTM xuddi davlat maktablari kabi davlat ta'lim standartlari (davlat talablari), o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq davlat ta'lim normalari shaklida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, samaradorlikni oshirish uchun xalqaro eng yaxshi amaliyotlardan foydalanish mumkin. Bunday maktabni qanday topish mumkin? Agar muassasa nomida «International» so'zi ishlatilsa, unda siz bu yerda chet ellik mutaxassislar ishlashi yoki xalqaro ta'lim tajribasi qo'llanilishiga amin bo'lishingiz mumkin. Ushbu shakl, albatta, ta'lim oluvchilar uchun plyus bo'ladi. Ammo, bu NTMda ta'lim davlat maktablariga qaraganda yaxshiroq bo'lishini

kafolatlamaydi. Shuni tushunish kerakki, ta'limda muassasa shakli emas, balki pedagog katta rol o'ynaydi.

**Qulaylik.** Bu yerda ota-onalar uchun ham, talabalar uchun ham ikkita qulaylik darajasini ajratish mumkin. Deyarli 24 soat davomida ishlaydigan ota-onalar uchun NTM «najot» bo'ladi. Muassasalarning ishlash tartibi o'rtacha 08.00dan 18.00gacha. Bola kun bo'yi pedagoglar nazoratida bo'ladi, bilim oladi, to'garaklarga qatnaydi, uy vazifalarini bajaradi, kuniga o'rtacha uch mahal ovqatlanadi. Boshqa tomondan, bunday rejim bolaga katta psixologik yuk bo'lib tushadi. U hamma narsani qilishga va rejim doirasida ulgurishga majbur. O'quvchi «shaxsiy vaqt» va «shaxsiy makon»da juda cheklangan bo'ladi.

**Maktab jihozlari.** Bu masalada NTMning ustunligi bor. Xususiy sektorda moddiy bazaning imkoniyatlari ancha kengroq, shuning uchun yaxshi jihozlangan xonalar, zamonaviy texnologiyalar va texnikadan foydalanish ilg'or, sifatli ta'lim bilan birga kechadi. Biroq bu omil barcha xususiy maktablarda mavjud emas. Jihozlanish ko'lamini qanday aniqlash mumkin? Juda oddiy. NTMdagi oylik to'lov miqdoriga e'tibor bering. Pul qanchalik yuqori bo'lsa, maktab shuncha ko'proq jihozlangan bo'ladi. Biznes bu baribir biznes.

**Bolaning ta'lim olishi va o'zlashtirishi.** Bu maktab shakliga uncha bog'liq bo'lmagan omil. Biroq, ba'zi ota-onalarning fikricha, xususiy maktabda baholar faqat ijobiy bo'lishi kerak. Shuni tushunish kerakki, ta'limdagi muvaffaqiyat maktab nomi va ota-onaning puliga emas, balki o'quvchi hamda pedagogning o'ziga bog'liq. Agar bola davlat maktabidan NTMga o'tkazilsa, bu uning natijalari yaxshilanishiga kafolat bermaydi. Ushbu holatda shu narsa plyus bo'ladiki, xususiy maktab sinflarida o'rtacha 15-20 nafar bola ta'lim oladi. Bu o'qituvchiga sinfdagi har bir bolaga e'tibor berish imkonini yaratadi. Uning xususiyatlari va qobiliyatlarini payqashda ham.

**Xavfsizlik.** Bu NTMdagi eng ijobiy jihat. Xususiy maktab - qo'riqlash ostida bo'lgan yopiq hudud. Aksariyat NTM videokuzatuv tizimlaridan foydalanadi. Xususiy maktablar son jihatidan davlatniki bilan taqqoslaganda uncha katta bo'lmagani sababli, bu qo'riqlash xizmatiga har bir bola va uning ota-onasini shaxsan tanish imkonini beradi. Hududga begonalar kira olmaydi.

**NTMda bepul ta'lim olish imkoniyati bormi? Bor!** Ijtimoiy qo'llab-quvvatlovga muhtoj oilalarning iste'dodli va iqtidorli bolalari uchun NTMda bepul ta'lim olish imkoniyati mavjud. Bunday bolalar tanlov asosida va jami o'quvchilar umumiy sonining 10 foizidan kam bo'lmagan chegarada olinadi.

Albatta, muassasani tanlash ota-onalar ixtiyorida, lekin o'quvchining xohish-istaklari haqida unutish kerak emas. Maktabda siz emas, balki farzandingiz o'qiydi!

Мактаб биноси, жиҳозлар ва машҳур номга е'тибор бериб, инсон омил ҳақида ҳам унутманг.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Махаммадиев А. Т., Анварова М. Д. Творческий подход дошкольного преподавателя к образованию //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С.25-28.
2. Махаммадиев А. Т., Каххарова С. М. Мышление, сознание и грамотность современные философские вопросы речевого образования //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2. – С. 168-171.
3. Махаммадиев А. Т. Образование-источник новых идей, творческого мышления и нововведений //Профессиональное самоопределение молодежи инновационного региона: проблемы и перспективы. – 2018. – С. 156-157.
4. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim xizmatlarini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi // " Russian" Инновационные подходы в современной науке. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
5. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim turlari va ularning am algaoshirilish mexanizmlari // " Germany" Modern scientific research: achievements, innovations and development prospects. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
6. Asatillaevich A. B. The main tasks of teaching a student to youth lesson in relation to specialists //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 8. – С. 123-126.
7. Arziqulova S. Talim-tarbiyada MTM bilan ota-ona hamkorligi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 140-143.
8. Xudoyberdiyeva D. A. Management Of Service Rendering Organizations And Its Own Characteristics //ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2019. – С. 24-25.